


**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ
БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ
ПЕДАГОГИКА КАФЕДРАСИ
ПЕШКУ ТУМАНИ 2-СОН КАСБ-ХУНАР МАКТАБИ**

**ПРОФЕССИОНАЛ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА
ДУАЛ ТАЪЛИМНИ ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ
ЗАМОНАВИЙ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ ВА РИВОЖЛАНИШ
ОМИЛЛАРИ**

Республика илмий-амалий конференция материаллари



Бухоро-2021

5. Кабиров Ж, Сагдуллаев А.С. Ўрта Осиё археологияси. Т., 1990.-Б-71
6. Б. Мирзокулов Бухоро тарих зарварақларида.Т., 2016.-Б-8-9

TA'LIMNING HOZIRGI KUNDAGI O'RNI

Akramov D.

BuxDu o`qituvchi

O'zbekiston Respublikasi inson huquqlari va erkinliklariga rioya etilishini, jamiyatning ma'naviy yangilanishini, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishni, jahon hamjamiyatiga qo'shilishni ta'minlaydigan demokratik huquqiy davlat va ochiq fuqarolik jamiyati qurmoqda.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasining rivojlanishi uchun har bir soha, har bir tarmog' etibordan chetga qolmasligi kerak. Zero davlat taraqqiyoti har bir jihatni birdek rivojlantirishni talab etadi. O'zbekistonni rivojlangan davlatlarga tenglashtirish hamda jahon bozoriga o'z o'rnini va roli bo'lishi uchun kurashish, bunga eng avvalo yosh avlodni bilim, salohiyat, iqtidor va tajribalarning yuksaltirish muhim rol o'ynaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, biz ta'lim-tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini zamon talablari asosida takomillashtirishini o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz. Yosh avlod tarbiyasi borasida gapirganimizda, Abdurauf Fitrat bobomizning ajoyib hikmati salmoqli o'rin egallaydi: "Xalqning aniq maqsad sari harakat qilishi, davlatmand bo'lishi, baxtli bo'lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo'lishi yoki zaif bo'lib xorlikka tushishi, baxtsizlik yukini tortishi, e'tibordan qolib, o'zgalarga tobe va qul, asir bo'lishi ularning o'z ota-onalaridan bolalikda olgan tarbiyalariga bog'liq". Bu fikrning naqadar to'g'ri ekanligini hayotda o'z aksini topmoqda. Shu maqsadda yosh avlodni jismonan barkamol, aqlli, zukko, teran fikrli, mustaqil fikr mulohazaga ega komil inson etib tarbiyalashimizda eng asosiy o'rinni oila instituti egallaydi, keyin esa umumta'lim maktablarda olib borilayotgan ta'lim –tarbiya ishlari muhim rol o'ynaydi. Shu maqsadda ta'lim-tarbiya o'chog'i hisoblanmish maktab

tizimi isloh etish hamda zamonaviy infratuzilmaga ega ta'lim muassasalar qamrovini kengaytirishga ahamiyat berilmoqda. Bundan ko'zlangan maqsad yoshlarimizni globalizm deb atalmish yovuz salbiy odat, an'ana va qadriyatlar yoshlar ongiga kirib kelishiga chek qo'yish lozim sanaladi. "Yoshlikka olingan bilim, toshga o'yilgan naqshdir" degan ibora bejizga xalqimiz tomonidan aytilmagan, yoshlarni maktabdan to'laqonli ta'lim-tarbiya berilsa, ularning kelajakda ajoyib shaxs va bevosita yurtimiz faravonligiga, rivojlanishiga va taraqqiyotiga munosib hissa qo'shadigan kadr va shu bilan birgalikda fuqarolik jamiyatining bir a'zosiga aylanadi. Qadimda ham insonlar ulg'ayib kelayotgan yoshlarga ta'lim-tarbiya berish ustuvor vazifa sifatida qarashgan: dastlab urug'chilik jamiyatida ham ta'lim-tarbiyaning asosi sifatida tabiat va e'tiqod muhim birlamchi vosita ekanligiga alohida ahamiyat berilgan, chunki insonga yashashi uchun eng avvalo, Zardustiylik dini ta'limotiga ko'ra muqaddas sanalgan, suv, havo, tuproq, olov bo'lganidek va bu ne'matlar tabiat inomi ekanligi hamda bu birlamchi ehtiyojni qondirish uchun tabiatni ta'lim shaklida; bu kabi ne'matlarga erishish uchun esa e'tiqodni tarbiya shaklida o'rgatish zamonaviy fanda o'z isbotini ko'rsatmoqda. Inson eng avvalo, pirovard maqsadi hisoblangan –to'la-to'kis shart-sharoitda baxtli hayot kechirishi uchun tabiatni va uning o'zgarimas qonunlarini, bundan tashqari uning uzviy bo'lagi e'tiqod va uning mustahkamligiga e'tibor qaratishi muhim masala sanaladi. Faylasuflar ta'rifiga ko'ra, inson tafakkurining shakllantiruvchi omillari –tabiat va e'tiqod sanaladi. Buning hozirgi kundagi shakli ta'lim va tarbiya hisoblanadi, chunki ta'lim orqali biz tabiatni, e'tiqod orqali tarbiyani yoshlarga o'rgatamiz. Shundan kelib chiqib, hozirgi global muammo sanalgan ta'lim va tarbiya ham Yevropani, bundan tashqari jahon hamjamiyatini e'tiborli masalasiga aylangan. Hozirgi kunda barcha davlatlarga globalizm va ommaviy madaniyat xavf solmoqda, lekin bu xavfni oldini olish uchun turli xil davlatlarda turlicha holat va jarayonlar avj olmoqda: bu Yevropa va rivojlangan davlatlarda ta'limni rivojlantirib, Sharqda esa nisbatan kam rivojlangan yoki rivojlanayotgan davlatlarda ta'lim va tarbiya orqali buni yengishga harakat qilinmoqda. Falsafada, har bir narsa ikki qarama-qarshilikdan vujudga kelishi hamda har bir narsaning ikki xil xususiyati

ijobiy va salbiy sifatga ega sanaladi. Shu fan isboti o'laroq, hech narsa yo'qlikdan bor bo'lmaydi, borlikdan yo'qlikka aylanmaydi. Bu tabiat qonuniyatini hamma fan isbotlaydi, chunki fizikada ham bir jism harakatini o'zgarishi uchun boshqa bir jism ta'sir ko'rsatishi kerak yoki biologiyada bir organizmni vujudga kelishi uchun boshqa organizmni ta'siri bo'lishi lozim sanaladi. Ana shunday tabiat qonuni bilan hisoblashsak, yoshlarni kelajakda shaxs bo'lishi uchun ta'lim va tarbiya uzviy bog'liq ravishda olib borilishi zamon va fan talabidir. Yana bir, olimlar ayniqsa Yevropaliklar, ta'lim va tarbiya ikonasi fan va zamon deb ham ilmiy adabiyotlarda talqin etishmoqda. Lekin bizning O'zbekiston Respublikasini rivojlangan va barqaror taraqqiyotga erishish borasidagi maqsadlarimiz, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda, jamiyatimizni ilm, marifat bilan sug'orishimiz hamda jahon taraqqiyot bosqichiga davlatimizni ko'tarish uchun jon – dilimiz bilan harakat qilmoqdamiz. Buning uchun birinchi navbatda kadrlarni bilimli, shu bilan birgalikda vijdonli etib tarbiyalashimiz darkor. Nima uchun biz tarixda o'rgangan O'rta Osiyo Renssansi davridagi taraqqiyotni, ta'lim va tarbiyani hozirgi kunda ko'rmayapmiz? Birinchi ustuvor vazifa kadrlarni ta'lim va tarbiyali etib tarbiyalashimiz kerak, buning uchun esa ta'lim tizimiga, xususan umumiy o'rta ta'limga e'tiborni kuchaytirishimiz va tarixiy tajribalarimizni amaliyotga jalb etishimiz darkor. O'rta asrlarda yurtimizda IX-XII asrlarda madaniy yuksalish kuzatilgan, o'sha davrda maktablarda o'quvchilar mantiq, falsafa, hadisshunoslik, shariat qonunlari(fiqh), Quroni Karim kabi fanlarni va kitoblarni o'zlashtirish muhim masala sanalgan, shuning uchun ham jahonni o'ziga qaratgan Renssans(uyg'onish) davri bo'lgan. Shuning uchun maktablarning 1-sinfidan to 6-sinfgacha ushbu fanlarni va kitoblarni o'quv dasturiga qo'shishni tavsiya qilaman: mantiq, falsafa, estetika, Al-jome as-sahih, Hidoya, Quroni Karim. Shunda birinchi navbatda o'quvchilar mantiq orqali fikrlarni tizimli bayon etish qobiliyatiga ega bo'lish, har bir ish mohiyatini hamda oqibatini anglash(falsafa), o'z harakatlarini anglash va tahlil qilish(estetika), vijdonli va iymonli bo'lish(Al-jome as-sahih, Hidoya, Quroni Karim) kabi qobiliyatlar hosil bo'ladi.

Hozirgi kunda jadal globallashtirilgan texnologiyalar asrida yashamoqdamiz, bu davrning o'ziga xos ijobiy xususiyatlari mavjud, bundan tashqari salbiy jihatga ham ega. Bu yoshlarning bir tomonlama fikrlashishida ko'zga ko'rinadi. Bu esa kompetentli etib tarbiyalashni taqozo etadi. "Competence" so'zi inglizcha musobaqalashmoq, raqobatlashmoq degan ma'nolarni anglatadi. Kompetentlilik bevosita kasbga loyqlik, o'z sohasi bo'yicha egallagan bilim, ko'nikma, malakalaridan ish faoliyatida amaliy qo'llash, namoyish etish sanaladi. Bilimga ega bo'lib ko'pchilik amalga qo'llay olmaslik namoyon bo'ladi, hozirgi yoshlar maktabda sinfdan –sinfga o'tish imtihonlari yatarli tarzda olib borilmasligi yoki o'quvchilarni sinflarni a, b, c guruhlarga ajratishda yetarlicha saralay olinmasligi o'quvchilarni keyingi o'qish jarayoniga salbiy natija ko'rsatmoqda, bilim va harakat o'z mahsuli bo'lmish natijani, yutuqni olib keladi. Bu qushning ikki qanotiga qiyos qilib, o'xshatish mumkin, qush ham ikki qanoti bilan parvoz qila olgani kabi, o'quvchilar ham bu ikki qanot(bilim va harakat) natijasida ilm yoki hayot yo'lida mufaqqiyat pillapoyasiga parvoz qilishni ta'minlaydi. Bu borada fikr bildirgan O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan xalq ta'limi xodimi, dotsent N. Turdiyev "XX asrda o'qish va yozishni bilmaydiganlar savodsiz deyilgan bo'lsa, XXI asrda o'rgangan bilimlarini amaliyotga foydalana olmaydigan odamni savodsiz deyiladi", bu eng avvalo O'zbekistonning taraqqiyoti uchun muhim ehtiyoj sanaladi. O. Behutovning "XXI asr valyutasi" nomli maqolasida o'quvchilarning bilimi katta daramadlar beradigan omonat kassasidir. Faqat o'sha olgan bilimlaringizni doimo amalda qo'llay olsangiz asl xazinaga, natijaga ega bo'lasiz. XXI asr valyutasi –amalda isbot qilingan bilimdir. Inson o'z hayoti faoliyati davomida kundalik birlamchi ehtiyoji ovqat kabi ma'lumotga ham ehtiyoji birlamchi hisoblanadi. Chunki tabiat, jamiyat va inson ham doimo o'zgarishda bu o'zgarishlar taraqqiyotga rivojlanishga ta'sir o'tkazishi uchun eng avvalo, bilim hayot muvozanatini tutib turuvchi vosita sanaladi. Shuning uchun yoshlarga va albatta farzandlarimizga yuksak ta'lim –tarbiya beraylik hamda shu orqali farzandlarimiz o'z maqsadi yo'lida ildam harakatlanadigan bo'lib, muvaffaqiyat pillapoyasidan ko'tariladi va O'zbekistonning rivojlangan demokratik

jamiyatga aylanishida muhim hissa qo'shadigan vijdonli, iymonli va albatta vatanparvar fuqarosi bo'lib yetishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi. T.: "O'zbekiston". 2016. 33b.
2. "Ta'lim to'g'risida"gi qonun. T. 1997.
3. Mirziyoyev Sh. M. "Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz". T.: "O'zbekiston". 2017. 488b.
4. Mirziyoyev Sh. M. "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz".T.: "O'zbekiston". 2017. 592b.
5. Narzulla Jo'rayev "Tarix falsafasining nazariy asoslari" – T.: "Ma'naviyat".2008.
6. "Ma'rifat" gazetasi
7. "Do'stlik bayrog'i" gazetasi

управление уровнем при производстве чистой воды	
НУРИЛЛАЕВА Н.Ш. Чет тилларни ўқитишда сифат самарадорликга эришишнинг педагогик ва психологик жиҳатлари	349
МАХМУДОВА С.Х. Ўқувчиларининг ўқиш саводхонлигини халқаро даражада баҳолаш	352
АЗИМОВА Н.Э., НАСИМОВА З.И. Очиқ таълим тизими таълим сифатини юқори кўтариш омили сифатида	355
АЗИМОВА Н.Э., НАСИМОВА З.И. Дуал таълим тамойилларига асосланган профессионал таълим дастурларини амалга оширишнинг ўзига хос хусусиятлари.	357
ЖУРАЕВ Б.Т. Педагогик мулоқот касбий компетентликнинг муҳим омили	360
САИДОВ О.Қ. Фармация йўналишида дуал таълимни ташкил этиш	362
МАХМУДОВА N. Ta'lim jarayonida didaktik vositalardan foydalanishning qulay shart-sharoitlari	365
МАЇДОВ J.J., РАҲАБОВА G.E . O`rta osiyo jadidlarining yangi usul maktablari faoliyatidan lavhalar	368
QUDRATOV Sh.Үо. Buxoro amirligida Rossiya sanoat korxonalari	375
БОЛТАЕВ Б.Б. Республикамиз музейларининг тараққиётида замонавий инновациялар	378
ЭРҒАШЕВА М.Р. Туркистон маърифатпарварларининг қарашларида баркамол ёшлар таълим тарбияси	380
ЖУМАЕВА М. Юртимиздаги қадимги оловли уйлар	384
БАХТИЁРОВ Б. Ёшларни Ватанга муҳаббат руҳида тарбиялашда музейларнинг ўрни ва аҳамияти.	387
Н.А. ЖУМАЕВА С. РАҲАБОВ Тараққиётнинг янги босқичи	394
ЎТАЕВА Ф. АББОСОВ А. Археологик тадқиқотлардаги инновацион ҳимкорлик	399
АКРАМОВ D. Ta'limning hozirgi kundagi o`rni	401